



QIZLAR TARBIYASI TO'G'RISIDA DINIY MANBALARDAGI TASNIFI

Ismoilova Himoyatxon Abduhalilovna

Farg'ona davlat universiteti filalogiya fakulteti gumanitar yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: *Hozirgi davrda bizgacha ko'plab ayollar masalasiga doir diniy manbalar yetib kelgan. Ushbu manbalardan ayollarning burchlarini tasviri yorqin ifodalanganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Tarixiy manbalarda ham ayollarning yetuk tarbiya topishi va majburiyatlari hamda haq-huquqlari inobatga olingan. O'sha darolardayoq ayollarning oila va jamiyatdagi o'rni ko'zga ko'ringan. Shu asnoda ko'plab allomalar o'z fikr va mulohazalarini ta'kidlab o'tishgan. Ularning asarlarida ayolarning burchlari yorqin ifodalangan.*

Tayanch so'zlar: *Tarixiy va diniy manbalar, Qur'oni karim, Alloh taolo, itoatkor, Soliha ayollar, Ma'siyat, ma'ruf, mustahiq, hifzi-himoyasi, shariat, rivoyat.*

Ayollarga hos eng go'zal boyluk-bu iffatdir. Iffat esa solihalik, itoatlik, bosiqlik, mustahkam aql-idrok, yetuk islomiy tarbiya, sabr-qanoat, go'zal axloq, iboli hulq va boshqa xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Har bir soliha ona o'z farzandiga islomiy qadriyat va tarbiya'ni bera olishi kerak. Chunki, bu fazilatlarining barchasi bebaho boylkdir. Darhaqiqat, har bir musulima qizlarda yetuk ta'lim-tarbiya yetishmasligi sababli ularning mustahkam oila barpo etishi qiyindir. Ushbu masalalar yuzasidan diniy manbalarda rivoyatlar keltirilgan.

“Rivoyat qilinishicha, Asmo binti Horis kelin bo'lib kuyov uyiga-xojasi xonodoniga ketadigan kunda onasi Umoma tomonidan unga shunday nasihat qilindi:

Bolajonim, sevikli qizim, meni yaxshi tingla. Nasihat har kimga lozim. O'git hammaga zarur. Nasihat bilmaganga o'rgatadi, bilganning esiga soladi.

Sevikli qizim, agar bir qiz ota-onasi kambag'alligi uchun erga berilishi kerak bo'lsa, sen hech qachon uzatilmadging. Chunki, otang juda badavlat, yuqori martaba egasi. Sen shunday bir odamning qizisan!...

Lekin hayot boshqacha. Alloh bizlarni yaratgan, biz uchun hayot qonunlarini belgilagan. Har bir inson Alloh belgilab bergan qonunlar chegarasida umr o'tkazadi. Allohning qonuniga ko'ra, hayotga qadam qo'yadigan vaqt kelganda, har bir ayol bir xojaga har bir xoja bir ayolga muhtoj bo'ladi. Erkaklar xotinlar uchun, xotinlar erkaklar uchun yaratilgan. Bu qonunni hech kim buza olmaydi, qiyomatga qadar davom etadi.



Shu sabab sen tug'ilib o'sgan, voyaga yetgan uyingdan, yayrab-yashnab o'ynab yurgan yeringdan chiqib o'zing bilmaydigan, notanish bir uyga, shungacha o'zing yaxshi bilmagan inson uyiga, o'zingniki bo'ladigan uyga borasan.

Suyukli qizim, ko'zimning nuri! Sen ul zotga (eringga) shunday xizmat qil: sen unga yer bo'lki, u senga osmon bo'lsin. Sen xojangga bir uy bo'l, u senga ustun bo'lsin!

Qizim, endi senga aytadigan o'gitlarimga quloq sol, ularni doim yodingda tut:

1. Qanoat sohibasi bo'l. O'z holingga shukr qil. Ering uyga nima olib kelsa-xoh yeydigan, xoh kiyadigan narsa bo'lsin-xushfe'llik, go'zal odob bilan qabul qil, eringga tashakkur ayt. Zero, baxtli hayot kechirishning bir yo'li o'z holiga shukr qilishdir. Holiga shukr qilmagan, nafsini tiymagan kishida qalb xotirjamligi bo'lmaydi.

2. Eringga itoat et, "Qil" deganini qil, "Qilma" deganidan saqlan! Ering bilan suhbatlashganda itoatli ekaningni tushunib olsin. Shunda Alloh taol sendan rozi bo'ladi, uyingiz saodat nuridan porlaydi.

3. Eringni ko'zi tushadigan joylarga yaxshi e'tibor ber: uy ichini, tashqarisini nihoyatda toza tut. Shunday qilki, xojangning ko'ziga bironta ham chirkin yer ko'rinmasin.

4. Ust boshtngni toza tut. Ering faqat xushbo'ylikni sezsin, dimog'iga yomon hid kelmasin. Chunki, yomon hid ering ko'z o'ngida sening obro'yingni tushiradi, irganishga sabab bo'ladi.

5. Ovqatni vaqtida tayyorla, ovqatlanish vaqtini zinhor kechga surma. Ering qachon ovqatlanishga o'rgangan bo'lsa, o'sha paytga ovqatingni hozirla. U kelishi bilan tezda dasturxon yoz. Shuni yaxshi bil: ochlik kishi jahlini tez chiqaradi.

6. Uxlash, uyg'onish vaqtini yaxshi bilib ol! Uning yotish payti bo'lsa, o'rnini tayyorlab qo'y.

7. Xojangning mulkiga, ashyolariga juda e'tiborli bo'l, uning mol-dunyasini yaxshi sala, buyumlarini avaylab asra. Chunki, uning mulki senikidir.

8. Eringning qarindosh-urug'lariga hurmat ko'rsat! Bu bilan uning e'tiborini qozonasan. Yaqinlarini hurmat qilish xojangni hurmat qilish demakdir. Bu, e'tibor qozonish uchun judayam muhim.

9. Eringning sirini boshqalarga aytma. Agar aytib qo'ysang, ishonchini yo'qotasan. Natijada oilang buziladi, hamjihatlikka darz ketadi.

10. Eringning dinga to'g'ri keladigan barja buyruqlariga ado et, hech qachon unga itoatsizlik qilma.



Shuni yaxshi bil: xojang xafa bo'lganida xursand bo'lishdan, shodon paytida xafa bo'lishdan ehtiyot bo'l. Chunki, bu bilan uning quvonchu dardiga sherik emasligi ko'rinib qoladi. Bu, fahm-farosatsiz, tarbiyasiz odamlar ishidir"¹.

Buning uchun musulima ayol ziyrak bo'lishlik, erining ko'ziga qarab nima hohlashini tushinishlik katta mahorat talab qiladi. Buning asosi faqat onalarning ong ildiziga va qon tomirlariga singigan bo'lishi kerak. Chunki, bularning barchasini islomiy qadriyatlarni qalbdan his qila olgan ona yoki islomiy ta'limotga to'yingan onagina farzandlariga singdira oladi. Hayotning ustuni nafaqat erkaklar, balki ayollar hamdir. Qiz bola tarbiyasi juda mustahkam bo'lishi zarur. Chunki, ayol oilada ro'zg'or tajamkorligi, farzand tarbiyasi, turmush o'rtog'ining dardu quvonchiga sherik bo'lishi lozimdir. Qiz bolaning qalami o'tkir bo'lishi kerak. Qalam - bu tajribadir. Qiz bolaning siyohi tiniq bo'lishi zarur. Siyoh esa bu - mukammal tarbiyadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Зиёуддин Раҳим “Бахтли ҳаёт сари”.Т.: 2018.
2. Аннемарие Шиммел “Жонон менинг жонимда”
3. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф “Бахтиёр оила”
4. Ismoilova, H. (2022). Commonwealth of Women in Folklore and Written Literature. *Eurasian Research Bulletin*, 8, 22-24.
5. Ismoilova, H. (2022). Islamic Approaches to the Image of Women. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 541-543.
6. Himoyat, I. (2019). THE ROLE OF LITERATURE, ART AND FOREIGN LANGUAGES IN PROMOTING WOMEN'S PARTICIPATION IN SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
7. Himoyat, I. (2019). THE ROLE OF LITERATURE, ART AND FOREIGN LANGUAGES IN PROMOTING WOMEN'S PARTICIPATION IN SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
8. Himoyat, I. (2019). THE ROLE OF LITERATURE, ART AND FOREIGN LANGUAGES IN PROMOTING WOMEN'S PARTICIPATION IN SOCIETY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12)

¹ Зиёуддин Раҳим “Бахтли ҳаёт сари”.Т.: 2018. Б.б 66-67-68



9. Ismoilova, H. A. The Expression of the Husband's Duties to His Wife and the Woman's Place in Religion and Society.

10. Ismoilova, H. (2022). Commonwealth of Women in Folklore and Written Literature. *Eurasian Research Bulletin*, 8, 22-24.

11. Ismoilova, H. (2022). Islamic Approaches to the Image of Women. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 541-543.

12. Ismoilova, H. (2022). Islamic Approaches to the Image of Women. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 5, 541-543.

13. Ismoilova, H. (2022). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA AYOLLARNING TASNIFI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 422-425.

14. Ismoilova, H. (2022). Portrait of Women's Place in the Family in Fiction Literature. *International Journal of Formal Education*, 1(10), 68-72.

15. Ismoilova, H. (2022). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA AYOLLARNING TASNIFI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 422-425..

16. Интернет саҳифалари